

## BUXGALTERIYADA IKKIYOQLAMA YOZISHNING AHAMIYATI

**Yuldasheva Mexrunisa Kasimjan qizi**

Nukus Innovatsion Instituti

“Iqtisodiyot va biznes” kafedrasi assistent o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Quyidagi maqolada ikkiyoqlama yozuv paydo bo’lish tarixi, asoschisi, xo’jalik yurituvchi subyektlarda uning ahamiyati, hisob tizimida uning o’rni va balans bilan qanchalik bog’liqligi aks etgan. Bundan tashqari ikki yoqlama yozuvning buxgalteriya hisobida qo’llanilishi, hozirgi kunga qadar o’z dolzarbligini yo’qotmaganligi haqida aytib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** ikki yoqlama yozuv, xo’jalik yurituvchi subyektlar, debet, kredit, schyotlar sistemasi, provodka, fond.

Jamiyatda ikkiyoqlama yozuvning paydo bo’lishi buxgalteriya hisobi rivojlanishiga asos bo’lgan. XIII—XIV asrlarda ikkiyoqlama yozuv tizimi paydo bo’ldi va Shimoliy Italiyaning bir necha savdo markazlarida undan foydalanila boshlandi. Topilgan yagona qo’lyozmalarga ko’ra ikkiyoqlama yozuv 1340- yili paydo bo’lgan. Yana boshqa manbalarga ko’ra bundan ham oldinroq Frantsianing Shampan viloyati savdo firmalarida (1299—1300) ikkiyoqlama yozuvdan foydalanilgan. Uning asoschisi Italiyada yashagan frantsuz monarxi Luko Pacholi hisoblanadi. U o’zining ulkan ishi hisoblangan “Schyot va yozuvlar to’g’risida risola” nomli asarida (1494- yil) hisob yozuvlari bo’yicha tushunchani ochib berdi. Hozirda ham bu kitob juda dolzarb hisoblanadi.

Xo’jalik yurituvchi sub’ektlar qaysi tarmoqqa qarashliligidan va unda qanday xo’jalik jarayoni ro’y berishidan qat’iy nazar har doim ikki va undan ortiq xo’jalik mablag’i yoki ularning tashkil topish manbalari ishtirok etadi. Shuning uchun ham xo’jalik jarayonlarini schyotlarda aks ettirishda ikki yoki undan ortiq schyotlardan foydalaniladi. Xo’jalik yurituvchi sub’ektlarda sodir bo’layotgan xo’jalik jarayonlari tufayli mablag’lar va ularning sodir bo’layotgan xo’jalik jarayonlari tufayli mablag’lar va ularning tashkil topish manbalari bir-biri bilan bog’lanadi va natijada ular uchun mo’ljallangan buxgalteriya hisobi schyotlari ham bir-biri bilan bog’lanadi. Schyotlar bog’lanishining buxgalteriya hisobi yozuvlarida aks ettirilishiga “Ikkiyoqlama yozuv” (buxgalteriya provokasi) deb aytildi. Xo’jalik yurituvchi sub’ektlarda sodir bo’layotgan jarayonlarga tegishli summalar buxgalteriya hisobi yozuvlarida eng kamida ikkita schyotga yoziladi, albatta bir schyotning debetiga, ikkinchi schyotning kreditiga. Ikkiyoqlama yozuv

usulining ahamiyati shundaki, uning yordamida, hisob ishlari to'g'ri yuritilayotganligini nazorat qilib borish imkoniyati yaratiladi. Amaliyotda xo'jalik jarayonini bir schyoti debeti va ikkinchi schyotning kreditida aks ettirilishi buxgalteriya provodkasi deyiladi.

Buxgalteriya hisobi schotlarida xo'jalik mablag'lari va ularning tashkil topish manbalari, shuningdek, xo'jalik jarayonlarining to'g'ri hisobga olib borilishini o'z vaqtida nazorat qilish uchun, ularning o'zgarishini aks ettiradigan har bir xo'jalik muomalasi bir vaqtda ikkita schyotning qarama-qarshi tomoniga yoziladi. Buxgalteriya hisobida ikkiyoqlama yozuvning mohiyati shundaki, har bir xo'jalik muomalasi, u qanday turdagি balans o'zgarishiga olib kelishidan qat'i nazar, bir vaqtda va o'zaro aloqador holda, bir xil summada bir schyotning debet tomonida va ikkinchi schotning kredit tomonida aks ettiriladi. Xo'jalik muomalalarini schotlarda ikkiyoqlama aks ettirishda qiymat miqdori o'zgarmaganligi sababli o'zaro bog'lanadigan schotlarning debet va kreditiga tegishli summalar bir-biriga teng bo'ladilar. Rossiyalik olim Ya.V.Sokolov ta'rifiga ko'ra, "schot hisob tizimining bir bo'lagi, tizim esa elementlar va ular o'rtasidagi axborot (almashish) bog'liqliklardan iborat. Shunday qilib, har bir schyot – bu tizimning elementidir. Buxgalteriya balansi tizimning modeli bo'lib xizmat qiladi va shu boisdan har bir schyot balansning bir qismi hisoblanadi".

Bugungi kunda buxgalteriya hisobi o'zi uchun biznes bo'lib, dunyo bo'ylab minglab amaliyotchilar va ko'plab professional tashkilotlar va amaliyot va talablarni kodlashtirish bo'yicha rasmiy ko'rsatmalar mavjud. Xususan, Qo'shma Shtatlarda Buyuk Depressiya davrida buxgalteriya hisobi amaliyotini yaxshiroq standartlashtirish va belgilangan professional ko'rsatmalar kodeksi bo'yicha talablar qo'yildi. Bugungi kunda buxgalteriya hisobining umumiy qabul qilingan tamoyillari yoki GAAP, buxgalterlar biznes yuritishi kerak bo'lgan standartlarni belgilab beradi. Har bir mamlakatda buxgalteriya hisobining o'xshash ko'rsatmalari mavjud. Bugungi iqtisodiy tizimning murakkab xususiyati tufayli buxgalteriya hisobining ixtisoslashgan tarmoqlari rivojlandi. Endi an'anaviy moliyaviy buxgalteriya hisobidan tashqari, soliq hisobi, boshqaruv hisobi, oriq buxgalteriya hisobi, fond hisobi va loyiha hisobi kabi bo'linmalar mayjud. Ushbu sohalar uchun professional buxgalterlar talab qilinadi, chunki ular biznes ehtiyojlari va buxgalteriya amaliyotini puxta va aniq anglash zarurligini o'z ichiga oladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi nizomi (Yangi tahriri)- Toshkent, O'zbekiston 2016
2. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standartlari O'zBAMA nashriyot axborot markazi
- 3.R.Dusmuratov "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" – Toshkent
4. F. G'ulomova Zamonaviy buxgalteriya hisobi "Noldan balansgacha" Toshkent-Norma 2013